

**O'zbekiston Respublikasi axborot texnologiyalari
va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi**

**Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
Farg'ona filiali**

“Kompyuter injiniringi” fakulteti

“Gumanitar va ijtimoiy fanlar” kafedrası

MUSTAQIL ISH

**MAVZU: OILA VA OILADAGI
MAFKURAVIY TARBIYA.**

Bajardi:

614- 15 guruh talabasi

Isaqov Abror

Qabul qildi:

Rustamov I.

Farg'ona - 2016

**MAVZU: OILA VA OILADAGI
MAFKURAVIY TARBIYA.**

REJA:

- 1. OILA TUSHUNCHASI.**
- 2. OILADAGI MAFKURAVIY IMUNITET.**
- 3. OILA MAMLAKAT IBTIDOSI.**

1. OILA TUSHUNCHASI.

Jamiyatimizda oila qadimdan muqaddas dargoh hisoblanadi. Jamiyat kelajagi va davlat taraqqiyoti mustahkam oilalar borligi bilan ifodalanadi. Chunki, kelajagimiz bo'lgan avlod, farzandlarimiz oilalarda tarbiya ko'radi. Jamiyat bir qancha oilalardan tashkil topadi. Oila ham bir maqsadga intilgan insonlardan tashkil topganligi sababli kichik jamiyat hisoblanadi. Shuning uchun ham konstitutsiyamizda oilani jamiyatning kichik yacheykasi deb ta'riflangan. Oilalarda tarbiya chiroyli, axloq qoidalariga mos ravishda berilgan bo'lsa, jamiyat obod va insonlar hayoti farovon bo'ladi.

Shaxs – barcha munosabatlarda aql bilan ishtirok etuvchi barkamol insonga berilgan ta'rif hisoblanadi. Jamiyatdagi ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy, madaniy va boshqa munosabatlarda fikrini jamlab oqilona qatnashgan inson-kamolga yetgan inson hisoblanadi.

Tafakkur fikrlashdagi to'liqlikdir. Agar oilada tarbiyalangan farzandlarimiz o'z fikrlarini donolik bilan bildira olsa, bajarayotgan ishi fikriga mos bo'lsa, oilada shaxs chiroyli tafakkurli qilib tarbiyalanibdi deb ayta olamiz.

Sharq mutafakkirlarining barchasini g'oyaviy jihatdan birlashtirgan asos shu bo'lganki, ular shaxs tarbiyasi va kamolotida oilaning, oilaviy tarbiyaning rolini yuqori qo'yishgan, ayniqsa, shaxsning aqliy va axloqiy kamolotida oilaning o'rni, ota-ona va yaqin kishilarning yo'naltiruvchi va tarbiyalovchi vazifalariga alohida e'tibor berganlar. Ular faqat oiladagina rivojlanishi mumkin bo'lgan sifatlar – halollik, poklik, mardlik, mehribonlik, haqgo'ylik kabi qator fazilatlarini barcha sifatlardan yuqori qo'yishlari bilan birga insoniy munosabatlarda nomoyon bo'lgan yuksak fazilatlar, avvalo, ota-onadan bolaga o'tishi va ularning jamiyat taraqqiyotiga ijobiy ta'siri kabi qimmatli fikrlar va bu boradagi amaliy ko'rsatmalarni o'z falsafiy-axloqiy, sotsiologik va psixologik qarashlarida ifodalab berganlar.

Nikoh-oila munosabatlari mavjud diniy va dunyoviy adabiyotlarda o'rganilishi bilan bir qatorda, ibtidoiy e'tiqodlar va diniy tasavvurlarda o'ziga xos ravishda nikoh-oila munosabatlarining tasvirlanishi va qonun-qoidalar asosida belgilab qo'yilganligini bilamiz. Shunday diniy tasavvurlardan biri mil.avv. I ming yillik boshlarida Markaziy Osiyoda shakllanganligi taxmin qilinadigan Zardushtiylikning asosiy kitobi Avestoda ham nikoh-oila munosabatlari e'tibordan chetda qolmagan.

2. OILADAGI MAFKURAVIY IMUNITET.

Nikoh-oila munosabatlari mavjud diniy va dunyoviy adabiyotlarda o'rganilishi bilan bir qatorda, ibtidoiy e'tiqodlar va diniy tasavvurlarda o'ziga xos ravishda nikoh-oila munosabatlarining tasvirlanishi va qonun-qoidalar asosida belgilab qo'yilganligini bilamiz. Shunday diniy tasavvurlardan biri mil.avv. I ming yillik boshlarida Markaziy Osiyoda shakllanganligi taxmin qilinadigan Zardushtiylikning asosiy kitobi „Avesto“da ham nikoh-oila munosabatlari e'tibordan chetda qolmagan.

Bu diniy e'tiqod mil.avv. I ming yillik birinchi yarmida O'rta Osiyoda shakllangan bo'lib, dastlabki yakkaxudolikka asoslangan diniy tasavvurlardan biri hisoblanadi. Unda ayolga munosabat, ayolning roli, vazifalari, nikoh qurish yosh davrlari belgilangan. Bu diniy tasavvurda nafaqat ayollarga balki, insonlarning bir-birlariga bo'lgan munosabatlarini, shaxslararo muloqotni o'ziga xos shakllarini, qonun-qoidalarini, tartiblarini ishlab chiqilganligini ko'rishimiz mumkin. Bu diniy e'tiqodga qadar bo'lgan xudolarga odamlarni qurbonlik qilishga qarshi kurashish Zardushtiylik diniy tasavvurini Markaziy Osiyoda keng yoyilishiga sabab bo'lgan asosiy omillardan biri bo'lganligini ham aytish lozim. «Avesto»da ko'rsatilishicha,

oilada ota etakchi bo'lgan. «Avesto»da ifodalangan oila va oilaviy munosabatlarga hamma rioya qilishi lozim bo'lgan.

Oilaviy munosabatlar va bu sohaga oid qarashlar tizimida Sharq mutaffakkirlaridan biri, butun Yevropa xalqlari ham uning qomusiy bilimdonligini tan olgan alloma Abu Ali ibn Sinodir (980-1037). Buyuk olim sifatida u barcha hodisalarning ilmiy mohiyatini ochib berishga harakat qilgan. Ibn Sinoning pedagogik va psixologik qarashlari ijtimoiy asosda qurilgan bo'lib, u bola tarbiyasida umuminsoniy tamoyilining qo'llanilishini yo'qlab chiqqan va tarbiyachi ota-onalarga bolan qattiq tana jazosidan ko'ra, shaxsiy ibrat orqali tarbiyalash ma'qulligini uqtirgan. Axloqiy tarbiya masalalarida alloma oilaning o'rnini alohida ta'kidlangan. Oila va oilaviy munosabatlar masalasi uning "Tadbiri manzil" asarida o'ziga xos tarzda bayon etilgan.

Ibn Sinoning bola tarbiyasi, tarbiya psixologiyasi va rahbarlarga qo'ygan ushbu talablari o'sha davrda qanchalik taraqqiyparvar va zarur bo'lsa, bizning bugungi kunimizda ham u o'z kuchini yo'qotgani yo'q.

Oilalarda barcha ijtimoiy-ma'rifiy, ma'naviy hamda ahloqiy qadriyatlar shakllanadi va kamolga yetadi. Oilada beriladigan ahloqiy tarbiyaning asosiy maqsadi bolalarda ijobiy sifatlarni hosil qilish, ularni yaxshi hulq-atvorga o'rgatish, ahloqiy hislatni rivojlantirish hamda ularda ijobiy xatti-harakat, ko'nikma va odatlarni vujudga keltirishdan iboratdir. Bolada mehnatni to'g'ri tashkil qilishning eng oddiy ko'nikmalarini hosil qilish, uni intizomli bo'lishga, topshirilgan ish uchun ma'suliyatni sezishga o'rgatish oilada ahloqiy tarbiya berishning birinchi galdagi vazifasidir. Ma'naviy, ahloqiy tarbiyaning asosi oiladan, ota-onaning tarbiya uslubi va mazmunidan boshlanadi. Bola tarbiyalanayotgan oilada ota-ona o'zaro totuv bo'lishi, bir-biriga bo'lgan samimiy munosabati, vafodorligi, ishonch va xurmati, og'ir vazmin bo'lishi, har qanday vaziyatda ham aql bilan ish tutishi, izzat hurmat bilan bir-birining qalbiga yo'l topishga intilish bola tarbiyasiga ijobiy ta'sir etadi.

Kamol topayotgan har bir bolaga birinchi navbatda, xushmuomilalikni, oila a'zolariga e'tiborli, qarindosh urug`larini, yaqinlarini qolidan qabar olib turmoqlikni, o`z oilasi sha'niga dog` tushirmaslikni, o`tib ketgan avlod-ajdodlarni yod etib turishni, ulardan qolgan udumlarni davom ettirishligi kerakligini tushuntirish foydadan xoli emas. Qadriyatlar ezgulikka boshlaydi. Yoshlarni tarbiyalashda qadriyatlardan foydalanish, yangilanish davrida tarbiyaviy ta'sirning muhim omillaridan biri sifatida juda katta ahamiyatga ega. Qadriyatlar o`zi nima? Uni qanday ta'riflash mumkin?

3.OILA MAMLAKAT IBTIDOSI.

Mamlakatimizda oilalar farovonligini ta'minlash, ularga moddiy va ma'naviy ko'mak berishga yo'naltirilgan chora-tadbirlar bosqichma-bosqich ro'yobga chiqarilmoqda. Ayniqsa, oilaga oid dolzarb ma'naviy-axloqiy masalalarni ilmiy jihatdan mukammal o'rganish, tahlillarni keng jamoatchilik o'rtasida targ'ib etish masalalariga yangicha yondashilayotgani yoshlarning oila, jamiyat, yurt oldidagi mas'uliyatini kuchaytirishda, ma'naviyatini yuksaltirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Binobarin, "Sog'lom bola yili" Davlat dasturida oilada o'zaro hurmat va mehr-muhabbat muhitini, yuksak axloqiy va ma'naviy qadriyatlarni shakllantirishga qaratilgan vazifalar belgilangan bo'lib, bu, o'z navbatida, xotin-qizlar qo'mitalari zimmasiga ham alohida mas'uliyat yuklaydi. Poytaxtimizda "Ma'naviyat oiladan boshlanadi" mavzuida o'tkazilgan ilmiy-amaliy anjumanda shular xususida so'z yuritildi

Anjumanda har tomonlama sog'lom va barkamol avlodni voyaga yetkazishda oilaning katta o'rni borligi ta'kidlandi. Zero, sog'lom bola sog'lom onadan tug'iladi, sog'lom turmush tarzi qaror topgan oilada voyaga yetadi. Prezidentimizning "O'zbekiston Xotin-qizlar qo'mitasi faoliyatini qo'llab-quvvatlash borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi

Farmoniga muvofiq, fuqarolar yig'inlarida diniy ma'rifat va ma'naviy-axloqiy tarbiya masalalari bo'yicha maslahatchi lavozimi joriy etilgani ma'naviy-axloqiy muhitni ta'minlashda muhim omil bo'lmoqda. — Oilada o'zaro hurmat va mehr-muhabbat muhitini, yuksak axloqiy va ma'naviy qadriyatlarni shakllantirish, asosiysi, jamoatchilik nazoratini o'rnatishda mahalla maslahatchilarining mas'uliyatini oshirish tadbirda ko'tarilgan dolzarb masalalardan biri bo'ldi, — deydi O'zbekiston Xotin-qizlar qo'mitasi raisining o'rinbosari Ozoda Parpiboyeva. — Ayniqsa, mahallalarda salomatlik, bandlik, ta'lim, oilaviy munosabatlarga oid sho'balar faoliyatini izchil yo'lga qo'yish, shu orqali hayotda uchraydigan ayrim masalalarni hamjihatlikda, jamoatchilik ishtirokida hal etish zarurligi aytib o'tildi. Shu maqsadda ularga amaliy-uslubiy tavsiyalar berildi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi;**
- 2. Oila kodeksi**
- 3. "Oila va jamiyat" gazetasi. 2015 yil 12-son**